



## XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 5-dekabr

VII-3-013-4-58-K/24

Qamashi tumani

### **Qamashi tuman mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Budget kodeksi”ning 126-moddasi, tuman hokimligining 2024-yil 4-dekabrdagi 02-02/5146-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. Qamashi tuman hokimligining 2024-yil 4-dekabrdagi 02-02/5146-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Qamashi tuman mahalliy budgetning 2024-yil III chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ilovaga muvofiq mablag‘lar yo‘naltirilsin.
3. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 147-148-moddalariga asosan tuman mahalliy budgetining ijrosini ta’minlash, kreditor qarzdorliklarni bartaraf etish uchun budgetda ko‘zda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida Qamashi tuman mahalliy budgetining 2024-yil xarajatlari doirasida kiritiladigan tegishli o‘zgartirishlar budget moddalariga asosan budget mablag‘ining cheklangan miqdorining 10 foizdan kam miqdorda o‘zgartirishlar amalga oshirilganda, har chorak yakuni bilan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashiga tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan hisobot berib borilishi ta’milansin.
4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Pardayev) belgilangan tartibda moliyalashtirish rejasiga o‘zgartirish kiritishni, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (Bekpulatov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’milasin.
5. Tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari va mas’ul xodimlariga, mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan mablag‘lardan o‘z vaqtida belgilangan tartib asosida maqsadli sarflanishi yuzasidan javobgar ekanligi belgilab quyilsin.
6. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Muminov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Toshturdiyev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



USMONOV XURSHID  
ABDUKARIMOVICH

Xalq deputatlari Qamashi tumani  
 Kengashining  
 2024-yil 5-dekabrdagi  
 VII-3-013-4-58-K/24 -son qaroriga  
 1-ilova

**Qamashi tuman mahalliy budjetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasining  
 orttirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy  
 rivojlantirish uchun yo‘naltirilayotgan mablag‘lar**

<b>№</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Ajratiladigan mablag‘lar miqdori (mln, so‘m)</b>	<b>Mablag‘ ajratilayot gan tashkilot nomi va sarflanishiga ma’sul rahbar F.I.Sh</b>
1.	Tuman hokimligi saqlash xarajatlariga (Internet, E-qaror, E-kengash, yoqilg‘i, elektr energiya va boshqalar)	121,1	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)
2.	Muqaddam sudlangan shaxslarga beriladigan bir martalik moddiy yordam puli xarajatlari uchun	25,0	Tuman hokimligi ko‘nikma markazi (B.Nomozov)
3.	Tuman hokimligi tomonidan har-xil bannerlar yasatish va o‘rnatish xarajatlari uchun	23,5	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)
4.	Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga to‘lanmay qolgan (sud qarorlariga asosan) ustama puli to‘lash xarajatlari uchun	100,0	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)
5.	Tumanda ichki bozorlarda narx-navo barqarorligini saqlash va aholini asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minalash maqsadida tuman hokimligi huzurida tashkil etilgan oziq-ovqat xavfsizligi jamg‘armasiga mablag‘ ajratish uchun	100,0	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)
6.	Tuman hokimligi bilan tuman “Vatanparvar” tashkiloti o‘rtasida tuzilgan ijara shartnomaga asosan ijara pulini to‘lab berish xarajatlari uchun	15,0	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)
7.	Tuman hokimining yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rnbosariga ish haqining bir baravari miqdorida mukofot pulini	7,0	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)

	to‘lab berish xarajatlari uchun		
8.	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qashqadaryo viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi tomonidan tuman hokimligining ma’muriy binosini qo‘riqlash xizmati xarajatlari uchun	80,0	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov)
9.	Tuman hududida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun yoqilg‘i sotib olish xarajatlari uchun	250,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Ismatullayev)
10.	Samarqand mahallasi yoshlari tomonidan 2023-yilgi DXX kubogi Respublika bosqichida 1-o‘rinni eganliganligi munosabati bilan davlat xavfsizlik xizmati Qashqadaryo viloyat boshqarmasi hamkorligida yoshlar guzari qurish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirish uchun	200,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Ismatullayev)
11.	2025-yil yangi yil bayramini munosib kutib olish maqsadida yangi yil archasi o‘rnatish, bezatish va tadbirlarni o‘tkazish bilan bog‘liq xajarajatlar uchun	50,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Ismatullayev)
12.	Tuman hokimligi bosh mutaxassislari, bo‘lim xodimlari, yetakchi mutaxassislari, ishchi va texnik xodimlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashi kotibi yoki xodimlari hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlarini 2024-yil bir martalik bir oylik maoshi miqdorida ish haqiga qo‘srimcha ustama pullarini to‘lash xarajatlari uchun	200,7	Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Xushmurodov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Pardayev)
13.	Tumandagi 50-sonli umumta’lim maktabida artizan quduq qazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	48,0	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Abrayeva)
14.	“Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanloving tuman bosqichi g‘oliblarini taqdirlash uchun	225,0	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Abrayeva)
15.	Qarshi-Chim avtomobil yo‘li yoqasida ekilgan daraxtlarni	63,0	Tuman Obodonlashtirish

	so‘g‘orish uchun artizan quduq qazish xarajatlari uchun		boshqarmasi (Sh.Ismatullayev)
16.	Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 24-sentabrdagi 2-1801-2303/9641-son qaroriga asosan Quziyev Xolmurod Norqobilovichga bankrotlik ishi bo‘yicha to‘lanmay qolgan mablag‘ uchun	30,0	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Pardayev)
17.	Tuman kambag‘allikni qisqartishi va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining davlat bojidan qarzdorligini qoplash uchun	10,9	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (R.Qorayev)
	<b>Jami</b>	<b>1 549,2</b>	

*Ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar va loyiha-smeta hujjalariiga asosan o‘zgartirish kiritilishi mumkin.*